



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 3 may

№ 1898

Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2024/2025 o'quv yili uchun qabul kvotasini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga hamda O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2024 yil 3 maydagi xulosasiga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2024/2025 o'quv yili uchun qabul kvotasi **160** (bir yuz oltmish) ta qilib belgilansin. Shundan:

Umumiy kvota: 140 (bir yuz qirq) ta

Jinoyat huquqi yo'nalishi bo'yicha: **70** (etmish) ta;

Fuqarolik huquqi yo'nalishi bo'yicha: **40** (qirq) ta;

Iqtisodiy huquq yo'nalishi bo'yicha: **15** (o'n besh) ta;

Ma'muriy huquq yo'nalishi bo'yicha: **15** (o'n besh) ta;

Qo'shimcha kvota: 20 (yigirma) ta

Xotin-qizlar uchun har bir yo'nalish bo'yicha
qo'shimcha 5 tadan: **20** (yigirma) ta.

2. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov